BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA CHET TILLARINI O‘QITISHDA ONA TILINING O‘RNI

Abdujalilova Sarvinoz Rashid qizi
O’qituvchi
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Yusufboyeva Faridaxon Oybek qizi
Talaba
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Qo’shimbatova Aziza Maqsudjon qizi
Talaba
Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida chet tillarini o‘qitishda ona tilining tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘quvchilarning lingvistik tafakkurini shakllantirishda, chet tilini o‘rganish jarayonida ona tili asosida taqqoslash va qiyoslash metodlaridan foydalanishning samarali jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: boshlang’ich ta’lim, chet tili, kompentensiya, innovatsiya, ona tili, o’zbek tili, muloqot, madaniyatlararo.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rganish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Shu bilan birga, chet tili o‘qitish jarayonida ona tili tayanch va vosita sifatida muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’limda chet tillarini o‘qitish o‘quvchilarda nafaqat til ko‘nikmalarini, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham shakllantiradi. Chet tillarini o’qitishda ona tili muhimdir. Biz bu orqali bolalarda solishtirish ko’nikmasini shakllantiramiz. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida chet tilini o‘qitish jarayonida ona tilining o‘rni beqiyosdir. Chunki bola til o‘rganishni aynan ona tili orqali boshlaydi, tildagi asosiy tushunchalar, grammatik tuzilmalar, talaffuz va so‘z boyligi haqidagi ilk bilimlar ham ona tili asosida shakllanadi.

Asosiy qism. Ona tili har bir o‘quvchining tilda fikrlash, tushunish va o‘z fikrini ifodalashga o‘rgatuvchi asosiy vositadir. Shuning uchun chet tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchi ona tilidagi bilimlariga tayanadi. Masalan, so‘z tartibi, grammatik shakllar, talaffuz va ma’no mosliklarini taqqoslash orqali yangi tilni o‘zlashtirish osonlashadi. O‘qituvchi chet tili darslarini ona tilidagi grammatik tushunchalar bilan bog‘lagan holda olib borsa, o‘quvchilarda tilning ichki tuzilishi, morfologik va sintaktik xususiyatlariga nisbatan chuqurroq tushuncha shakllanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar lingvistik tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini egallaydilar. Ona tili asosida chet tilini o‘qitishning yana bir afzalligi o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlashdir. Chet tili ular uchun mutlaqo yangi tizim bo‘lgani sababli, ona tilidagi tushunchalar orqali uni tushuntirish dars jarayonini yengillashtiradi va motivatsiyani oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali til tizimi haqida to‘liq tasavvurga ega emaslar. Shu sababli ular chet tilini o‘rganishda mavjud ona tili bilimlariga tayanadilar. O‘qituvchi yangi til elementlarini (masalan, ot, fe’l, sifat, gap tuzilishi) ona tilidagi o‘xshash yoki farqli jihatlar bilan solishtirib tushuntirganda, o‘quvchilar materialni osonroq o‘zlashtiradilar.Ingliz tilidagi “I am a pupil” gapini o‘rgatishda o‘qituvchi “Men o‘quvchiman” degan ona tilidagi gap bilan

qiyoslab, fe’lning o‘rnini, bog‘lovchi so‘zning funksiyasini tushuntiradiOna tilidan foydalanish o‘quvchiga til hodisalarini taqqoslash imkonini beradi. Shu orqali bola grammatik qoidalarni mexanik yod olish o‘rniga, ularning mazmunini chuqurroq anglaydi. Masalan, ingliz tilida so‘z tartibi qat’iy ekanini o‘quvchi o‘zbek tilidagi erkin so‘z tartibi bilan taqqoslab bilib oladi.Chet tilidagi yangi so‘zlarni o‘rganishda ularning ona tilidagi tarjimalari va sinonimlarini bilish so‘z boyligini kengaytiradi. Shu tariqa o‘quvchi nafaqat chet tilida, balki ona tilida ham so‘z zaxirasini boyitadi.

Boshlang‘ich ta’limda chet tilini o‘qitishda ona tilining o‘rni beqiyosdir. Ona tili yordamida o‘quvchi chet tilini mantiqan, grammatik jihatdan va leksik jihatdan to‘g‘ri o‘zlashtiradi. Shunday ekan, o‘qituvchi dars jarayonida ona tili va chet tili o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olgan holda, integrativ yondashuv asosida ishlasa, bu til o‘rganish samaradorligini oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda chet tilini o‘qitishda ona tilining o‘rni juda muhim bo‘lib, u o‘quvchining yangi tilni o‘zlashtirishida tayanch asos vazifasini bajaradi. Chet tili darslarida ona tili orqali o‘quvchilarda til hodisalarini tushunish, grammatik qoidalarni taqqoslash va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.Ona tili yordamida chet tilidagi so‘z va iboralarni osonroq tushunish, ularni eslab qolish va to‘g‘ri talaffuz qilish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, o‘quvchi ikki tilda so‘zlashish madaniyatini rivojlantiradi, bu esa uning nutqiy, mantiqiy va kommunikativ salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Jalolov. “Chet tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2020.
3. Sh. Sodiqova. “Ona tili va chet tili o‘rtasidagi uzviylik”. Ilmiy maqolalar to‘plami, 2021.